

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN NEFT VA
GAZNI QAYTA ISHLASH TEXNLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN NEFT VA GAZNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

“Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi”

1. Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy bosqichlari;
2. Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy jarayonlari;
3. Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy uskunalari
4. Neft va gazni tashish;
5. Neft va gazni saqlash.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy bosqichlari	Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy yo'nalishlariga doir masalalar yechishini bilish, farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	13 ta
2	Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy jarayonlari	Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy jarayonlari bobiga oid masalalar yechish. hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish. Qonun va qonuniyatlarni hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	9 ta
3	Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy uskunalari	Neft va gazni kompleks tayyorlash jarayonlarining asosiy uskunalari boblariga oid masalalar yechishni bilish. Qonun va qonuniyatlarni hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	7 ta
4	Neft va gazni tashish.	Neft va gazni tashishga doir masalalar yechishda qonuniyatlarni to'g'ri qo'llash. Neft va gazni tashishning turlari va usullarini tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	5 ta
5	Neft va gazni saqlash.	Neft va gazni saqlash bobiga doir vaziyatlarni yechish, farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish. Neft va gazni saqlashning usullari tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	6 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %

3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %
-----------	------------------------	---	------

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me‘yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. A.A. Zakirov “Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi” Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti 2020-yil.

2. A.X. Agzamov “Neftni qayta ishlash asoslari” Toshkent: Innovatsiya nashriyoti 2021-yil.

3. U.A. Ziyomuhamedova “Neft va gazni qayta ishlash jarayonlari” Toshkent Fan va texnologiya 2019-yil.

4. M.Q. Nazarbekov “Neft va gaz texnologik jarayonlari” Toshkent Universitet nashriyoti 2020-yil.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*